



Vebsayt: <https://involta.uz/>

SHOYIM BO`TAYEV QISSALARIDA FOLKLOR NAMUNALARINING IFODASI

Mustaqil izlanuvchi: Artikova Durdiposhsha Ataxanovna

Annotatsiya: Maqolada yozuvchi Shoyim Bo`tayev qissalaridagi folklorizmlarning qo`llanilishi yoritib beriladi. Yozuvchining qissalarida maqol, matal, rivoyatlarni qo`llash mahoratiga e`tibor qaratiladi. Folklorizmlarning asar badiiyatidagi ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so`zlar: folklorizmlar, maqol, matal, rivoyat, badiiy asar, badiiy obraz, qahramon kechinmasi, ertak.

ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗЦОВ ФОЛЬКЛОР В РАССКАЗАХ ШОИМА БОТАЕВА

Независимый исследователь: Артикова Дурдипошша Атахановна

Аннотация: В статье описывается использование фольклора в рассказах писателя Шоима Ботаева.

Ключевые слова: фольклоризмлар, пословица, маталя, повествование, произведение искусства, художественный образ, героический опыт, сказка.

EXPRESSION OF EXAMPLES OF FOLKLORE IN THE STORIES OF SHOYIM BOTAYEV

Independent researcher: Artikova Durdiposhsha Atakhanovna

Annotation: In this article, it is highlighted the use of folklorisms in Shayim Butayev`s stories. The writer`s stories mainly focus on the skill of using parables and narrations.

Keywords: The importance of folklorisms in the art of the work is analyzed.

Bugungi kunda o`zbek ijodkorlari folklorizmlar va folklor stilizatsiyalari asosida ham asarlar yaratmoqdalar. Folklorshunos B. Sarimsoqov yozma adabiyotning folklor bilan bo`lgan bog`liqligini xarakteriga ko`ra ikkiga ajratadi. Birinchisi, yozma adabiyot va folklorning genetik (bevosita) aloqasi. Ikkinchisi, har ikkala jarayonning-yozma adabiyot va folklorning bilvosita folklorizmlar orqali aloqasi.[3]

Folklorizm- shoir va yozuvchilarimizning folklor namunalaridan foydalanib, uning ta`sirida asar yaratishidir. Ijodkorlarimiz o`z asarlarida oddiy va murakkab folklorizmlarni qo`llab, eng sara asarlarni taqdim etmoqdalar. Yozuvchi Shoyim Bo`tayev asarlarida xalq maqollari, rivoyat, qo`shiq, ertak,doston kabi folklorizmlar orqali falsafiy mushohadalarini, hayotiy qarashlarini, nasriy subyekt ruhiyati tasvirini berishda mahorat bilan foydalangan. 70-80-yillarda ma`naviyatimiz asosi bo`lgan dini, tarixi va milliy qadriyatlaridan mahrum bo`lgan xalq mustaqillikka erishgach, ularda o`z millatidan g`ururlanish tuyg`usi paydo bo`ldi. Bu badiiy asarlarda ham o`z ifodasini topdi. Chunki ruhi ozod, erkin fikrga ega ijodkorgina asar voqeligini, obrazlar kechinmasini, zamonamizning dolzarb muammolarini badiiy shaklda haqqoniy ifodalay olgan umrboqiy asarlar yarata oladi.

Sh. Bo`tayevning “ Kayvonining mangu makoni” qissasi voqealari ertak uslubida bayon qilingan: “...Yumaloq yer ustida, osmon gumbazi ostida bir qishloq bo`lgan

ekan.

Tog`ning shundoqqina etagida ekan.

Ko`chki xavfi ostida qolgan ekan.

Qadimda bu qishloqda besh tom bo`lgan ekan, shundan uning Beshkapa nomi qolgan ekan.

Ko`chki xavfi tug`ilganda tomlar ko`paygan ekan.

Odamlarning fe`li o`sha-o`sha ekan: qadimgidek...(263-b)

Qissada kayvonining elga ma`lum va mashhur matali keltiriladi. Asarda qishloq ahlari boshqa makonga ko`chib ketayotganlarida ushbu matalga amal qilishadi: Shu qishloqda bir kayvoni bor ekan .

Tovuqni kataginiyam buzib bo`lmaydi, deb aytib yurguvchi ekan.

Suygan matali shu ekan.

Ana shu kayvoniyam, qishloq ahli ham o`pkasi to`lganicha shu uy tomiga chiqib sardevorga ketmon uribdi. Tovuqning katagiga teginmapti...(264-b)

Quyida keltirilgan parchada esa jonlantirish usulidan foydalanilgan “... Dala hovlilar qurilayotgan joyda ilgari yayrab-yashnab o`sgan o`simliklarni mashinalar bosib o`taverganidan qovurg`alari sinib ketibdi, qum-shag`al to`kilaverganidan nafas ololmay qolishi, ularga qiron kepti, ular uchun qiyomat bo`pti, ildizlari chuqur ketganlari hayot uchun kurashipti, o`zlarini tiklashga harakat qilishi, baribir, ilgari gurkirashlar yo`q ekan, baribir, ilgari bo`y taratishlar yo`q ekan, baribir, ilgari sarxush bo`lishlar yo`q ekan. Barcha shoxlari sinib tushib, faqat bitta shoxchasi saqlanib qolgan yantoq yonida egilib tushgan oqtikanga hasrat qilipti” (288-b).

Sh. Bo`tayev “Kayvonining mangu makoni” qissasida kayvoni va uning hamqishloqlari xarakteridagi vatanparvarlikni azaliy udumlar, an`analar asosida folklore ko`rinishida maqol, metal, rivoyatlar orqali ifodalagan. Xalq orasida necha yillar davomida tildan-tilga o`tib kelayotgan qadimiy ishonchlar, e`tiqodlar mavjud. Ijodkor inson tabiat va jonzotlar o`rtasidagi azaliy munosabatlarni asarga

olib kirish bilan birga qahramonning borliqqa va insonga bo'lgan tahayulini, munosabatlarini aniqlashtirishdir. Bu esa ijodkorning tabiat va inson o'rtasidagi ko'rinmas bog'liqlik borligini ruhan his etganligini, ularga nisbatan mehrini ko'rsatadi.

Sh. Bo'tayev qissalarini tahlil qilar ekanmiz, ijodkor uslubida syujet qurish mahoratiga ham tan beramiz. Ya'ni qissalarda qo'llangan obrazli ifodalar, frazeologik birliklar, badiiy-tasviriy vositalar, xalq og'zaki ijhodi namunalari bo'lgan maqol, metal va afsonalar ijodkorning iste'dodini, badiiy tafakkurini, syujet qurish mahoratini ochib bergan. "Shamol o'yini" qissasida voqealar real voqelikka, g'ayritabiiy tarzda to'satdan yuz beradigan sirli hodisalar uyg'un holda tasvirlab berilgan. Asarda Oybuloq qishlog'ida yuz bergan holat qishloq hayotini ag'dar-to'ntar qilib chalkashtirib yuboradi. Berkinboy esa Tepasirli tarzda birdan paydo bo'lib qoladi. Dastlab tinch-farovon, bahamjihat yashayotgan Tapa qishlog'I orasida Berkinboy va Yoshuzoq paydo bo'lgach, qishloqdan baraka ko'tariladi; yovuzliklar, nopokliklar ko'payadi. Yoshuzoq-Berkinboy orqali qissaga olib kiritilgan, asosiy obrazlardan biri. Yozuvchi asar boshida Oybuloq bilan Tapa qishlog'ini odamlarini, qissa oxirida Qum qiyalikdagi to'rtta xonadonni qiyoslab, o'z g'oyaviy-badiiy maqsadini amalga oshirgan. Xullas, adib azaliy qadrlanib kelinayotgan halollik, poklik, to'g'rilik, kamtarlik inson umri, oila totuvligi, jamiyat ravnaqi uchun muhim hislat ekanligini asar mohiyatiga singdirgan.

Sh. Bo'tayevning "Eski arava" qissasi ham o'ziga xos tarzda yaratilgan. Asarda yozuvchi mashhur rus adibi Gogolning "O'lik jonlar" asari qahramonlarini asosiy obrazlar sifatida kiritgan. Ushbu asar qahramonlari xayolan O'zbekistonga safar qiladilar. Pavel Ivanovich Chichikov, Selifan, Sobakevich, Nishonboy Hurzamonovich kabi obrazlar orqali adib mustamlakachilik siyosatining mudhish oqibatlarini, boshqa millat urf-odatlarini mensimaslik, uni anglamaslik va o'zlashtirishning ayanchli oqibatlarini ramziy-majoziy tarzda ko'rsatib berishga harakat qilgan Chichikov va Selifan suhbatiga ko'ra O'zbekistonga kelgan kishilarning ba'zilari jinoyatchi, o'z yurtidan haydalgan kishilardir. Qissada

Chichikov uni kutib olish uchun non-tuz ko'tarib atlas kuylakda chiqqan qizga , bunday udumga mensimay qaraydi. Yoki erkak kishilarning o'pishishlari , manfaati uchun hatto insonlarni nazariga olmasligi kabi illatlar keltirilgan. Asar qahramoni Nishonboy Hurzamonovich barcha topshiriqlarni "labbay" deb javob beruvchi, qullik siyosatini amalga oshiruvchi manqurt obraz sifatida tasvirlangan. Yozuvchining mahorati shundaki, o'sha salbiy holatlarga qahramonlar orqali xulosa yasagan.

Mustamlakachilik davrida mana shunday obrazlar va ularning qulliqonaso'zlari oqibatida tinmay dalada mehnat qiladigan og'zi qulf "dehqonqul"larning paydo bo'lishiga, Ona-tabiatning ifloslanishiga, Orolning qurishiga, behayo qo'pol ayollar , tarbiyasiz bolalar, imon-e'tiqoddan yiroq kishilar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu esa yaqin o'tmish bilan bugunni taqqoslashga majbur qiladi. Asarda mifologik qarashlar va tushunchalar: Hudo, Shaytoni lain, Iblis kabi mifik obrazlar, e'tiqod-odatlar keltiriladi. Yozuvchi qahramonlar holatini hamda voqelikni xalq maqollaridan foydalangan holda aniq, lo'nda tasvirlab bergan.

...shu choqqa kelib gilos chubug' ko'taradimi, olcha chubug' ko'taradimi...

...ko'r tutganini, kar eshitganini qo'ymaydi...

...avval o'zingga boq, so'ngra nog'ora qoq...

...aytilmagan joyga borma, aytilgan joydan qolma...

...sichqonning ini ming tanga...

...izzat-hurmat ko'raman desang, xo'jayinlaringga to'g'ri bo'l...

... So'raganning aybi yo'q... kabi maqollardan foydalangan.

Asarda Shaytoni lain haqidagi rivoyatning keltirilishi yangi o'zbek adabiyoti janrlarini folklor namunalari bilan uzviy bog'lab tasvirlashning yorqin ifodasidir.

Sh. Bo'tayev qissalarida ifodalanayotgan qahramonlar va ular nutqidagi holatlar, turli xarakterga ega qahramonlar, asar syujetiga kiritilgan afsona va rivoyatlar, ifodalangan voqea-hodisalar istiqloq davri adabiyotiga xos va mos yangilanishlardan bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Sarimsoqov B. Folklorizmar tipologiyasiga doir // XX asr o`zbek folklorshunosligi. Antologiya.-T. “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat nashriyoti, 2017.
2. Bo`tayev Sh. Kayvonining mangu makoni.-T
3. Sarimsoqov B. Folklorizmar tipologiyasiga doir // XX asr o`zbek folklorshunosligi. Antologiya.-T. “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat nashriyoti, 2017.-B. 348 (592b)